

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at” kafedrasida professor v.b PhD Ahmedov Muhammad-Umar Bahriddinovich taqrizi ostida**

**Talipov Nigmatjon Nozimovich**  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
“Tasviriy san’at” kafedrasida dotsenti v.b.  
Telefon raqami: +998 90 946 0151  
E-mail: [talipovnigmatjon@mail.ru](mailto:talipovnigmatjon@mail.ru)

---

## **AMALIY SAN’AT DARSLARIDA KOMPOZITSIYA QONUN-QOIDALARIDAN FOYDALANISH**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola naqqoshlik san’atida kompozitsiyaning ahamiyati, kompozitsiya qonun-qoidalari haqida va ularga rioya qilish orqali naqsh elementlaridan mo’jaz san’at asarlarini yaratish to’g’risida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** naqqoshlik, kompozitsiya, komponovka, ritm, stilizatsiya, simmetriya, asimmetriya, nisbat, hajm, yakka band, rapport, qo’sh band.

**Резюме:** В данной статье рассматривается значение композиции в искусстве росписи, правила композиции и создание замечательных произведений искусства из элементов узора, следуя им

**Ключевые слова:** роспись, композиция, компоновка, ритм, стилизация, симметрия, асимметрия, пропорция, объём, одно ветвь, раппорт, двойное ветвь.

**Abstract:** This article discusses the meaning of composition in the art of painting, the rules of composition and the creation of wonderful works of art from pattern elements, following them

**Key words:** painting, composition, layout, rhythm, stylization, symmetry, asymmetry, proportion, volume, single branch, rapport, double branch.

Zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi insonning hayotda tutgan o’rni to’g’risidagi tasavvurlarini kundandun takomillashib, o’zgarib olamni anglashning yangi usullari shakllanmoqda, ma’naviy-amaliy o’zlashtirishning yangi vositalari va usullariga yuz tutilmoqda.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o’zlarining O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisida, — **“Bizning vazifamiz — to’plangan tajriba va ilg’or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o’zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat’iy amalga oshirishdan iborat”**<sup>1</sup>.— degan edilar.

Darhaqiqat, ta’limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o’qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to’g’risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvafaqqiyat qozonadi.

Inson omillarining yuqorilab borishi, uning hayotiy sharoitlarini o’zgartiruvchi va insonni o’zini ham o’zgartiruvchi faoliyat hozirgi zamonda ta’limning umumiy asosiy mezoniga aylandi. Inson faoliyati jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko’rinishlar, faoliyatning turli shakllarida farqlanadi. Biroq, ichki munosabatlar, ular o’rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo’lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir.

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: “O’zbekiston” NMIU, 2016, -20 b.

**“Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo’lg’usi Renessansning to’rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog’cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o’qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg’onish davrining to’rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.”<sup>2</sup>**

Maorif, fan, texnika, texnologiya, iqtisod, madaniyat sohalarida respublika hamda xorijda erishilgan yutuqlar va muvaffaqiyatli izlanishlar asosida takomillashtirish, ta’lim tizimini, uning yagona o’quv-ilmiy ishlab chiqarish kompleksi ko’rinishida muttasil rivojlanib borishini ta’minlash bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri bo’lib turibdi. Davlat ta’lim standartlarining yangi, zamon talablariga javob bara oladigan avlodini yaratish va amalga kiritishning ilmiy asoslarini, ta’lim tizimi, ilm-fan, ishlab chiqarishga turli darajadagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning o’zaro ta’sir ko’rsatish mexanizmini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Milliy uyg’onish mafkurasi g’oyalarini o’quvchi-yoshlar hamda mutaxassislarni tarbiyalashdagi rolini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlaridagi o’quv-tarbiya jarayonlarini ilmiy-uslubiy jihatdan boyitish, o’quv jarayoniga ilg’or innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, didaktik va uslubiy jihatdan ta’minlash, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining negiziga asoslangan holda amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirish lozim.

Darhaqiqat, inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo’lib, uni estetik to’laqonliliksiz tasavvur etib bo’lmaydi. Inson hayoti jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar borliqqa go’zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi.

O’sib kelayotgan yosh avlodni jahon andozalariga javob beradigan barkamol inson etib tarbiyalashda naqqoshlik san’ati alohida ahamiyat kasb etadi.

Naqqoshlik san’ati amaliy bezak san’atining boshqa turlari qatorida o’zining taraqqiyot yo’lini bosib o’tib, kompozitsiya tuzish komponentlari asosida rivoj topdi, kompozitsiya qonuniyatlariga, bajarilish usullariga va albatta, ranglar garmoniyasining o’ziga xos yo’nalishiga ega bo’lgan san’at turlaridan biri sifatida namoyon bo’ldi.

Naqqoshlikda mahalliy va turli ashyolarga badiiy ishlov berish va binolarning milliy bezak ishlarida qo’llaniladigan naqsh kompozitsiyalarining o’ziga xos bog’liqligi, shuningdek, umumiyligi ham mavjud. Naqshdagi elementlar qayta ishlangan nabotot va hayvonot olamining eng sodda stillashtirilgan holatidagi ko’rinishlaridan iborat naqsh kompozitsiyalarining asosiy qismlarini tashkil etadi.

Naqqoshlik san’atining asosiy va murakkab bosqichlaridan biri bu, naqsh kompozitsiyasini tuzishdan iborat. Naqsh kompozitsiyalari yakka (yakraftor) va qo’sh bandli (duraftor yoki qo’shraftor) novdalar ko’rinishida amalga oshiriladi. Naqshlar o’zining rang va elementlar jihatidan qo’llanilishiga ko’ra ramziy ma’no va mazmun kasb etadi. Naqsh kompozitsiyalarini tuzishni o’rganishda ma’lum tartib va qoidalarga amal qilinadi, hamda oddiydan murakkabga tomon o’rganib boriladi. Albatta, naqsh kompozitsiyalarida rang tuslarining ham alohida o’rni bor. Naqqoshlik san’atida naqsh elementlari, bezaklar va turli-tuman shakllar, kompozitsiya qonuniyatlaridan tashqari uni bo’yashda qo’llaniladigan bo’yoq turlari va ularning o’ziga hos xususiyatlari, rang tuslari, rang koloriti, ranglarning hamohangligi va shu kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, xalq hunarmand ustalari tomonidan ishlangan naqsh namunalarini o’rganadigan bo’lsak, ularning u yoki bu rang tuslariga bo’ysindirilganligini, ya’ni rang koloritiga ta’sirida bajarilganligini guvohi bo’lamiz. Shunga ko’ra jigarrang, zumrad rang, havo rang, feruza rang, yashil rang, binafsha rang va shu kabi ranglar muhitida bajarilgan naqsh kompozitsiyalari loyihalashtirilgan. Tuzilgan naqsh

---

**<sup>2</sup>O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’qituvchi va murabbiylar kuniga bag’ishlangan tantanali marosimdagi “O’qituvchi va murabbiylar — yangi O’zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” mavzusidagi ma’ruzasi. -T.: //Ma’rifat, 2020-yil, 30-sentyabr.**

kompozitsiyalarini bo'yashda bir rangning bir necha xil tuslaridan foydalaniladi, bunda oq bo'yoq rang tuslarini tayyorlashda asosiy vazifani bajaradi va o'z navbatida bitta naqsh kompozitsiyasi bir nechta koloritda bo'lishi ham mumkin.

Akvarel bo'yoqlari bilan qog'ozga ishlangan naqshlarni bo'yayotganda esa oq bo'yoq bilan birga suv rangni ochlashtiruvchi vosita sifatida muhim. Shuni unutmaslik joyizki, ayrim bo'yoqlarni bir-biri bilan aralashtirishda ba'zi bir zaruriy choralarni ko'rish talab etiladi. Bunga sabab, to'q rang tusiga ega bo'lgan bo'yoq tarkibiga boshqa biror bir rang tusi aralashtirilsa uning tusi albatta to'qlashadi. Bu esa o'z navbatida rang tusining och yoki to'qlik darajasiga ta'sir etadi. Ayniqsa, moy bo'yoqlarida ishlangan naqsh kompozitsiyalarining rang tuslari keyinchalik to'qlashib, qorayib ketish moyilligi ortadi. Agarda bezatilayotgan ashyo uy-ro'zg'or buyumi, sport buyumi bo'ladi yoki me'moriy obidalarga ishlanadimi, ular uzoq vaqt saqlash uchun mo'ljallangan bo'lsa, iloji boricha ochiq rang tuslarda bo'yash tavsiya etiladi.

“Ranglar va ularning tuslari badiiy naqsh koloritini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra rang muhitini biror bir aniq rang koloritiga buysundiriladi. Masalan jigar rang, havo rang, sarg'ish yoki qizil ranglar muhitida ishlangan naqsh kompozitsiyalari shular jumlasidandir.

Naqsh kompozitsiyalari bo'lak (rapport)lardan tashkil topishi bilan birgalikda ritmik takrorlanib keladi. Naqqosh ustalar o'z ijodlarida islmiy, girih va murakkab turlaridagi naqsh kompozitsiyalaridan keng foydalanadilar.”<sup>3</sup>

Islmiy naqshlar tabiatdan novda elementlarining bir tomonlama harakatlanib o'suvchanlikni anglatganligi sababli yuguruvchi deb ham ataladi. Jumladan, majnuntol, chirmovuq va shu kabi o'simlik elementlari aks ettirilgan naqshlarni kuzatar ekanmiz, ko'z ilg'amas jimjimali novda yo'llari tabiatdagi singari bir tomonga harakatlanib chizilganligini yaqqol sezishimiz mumkin.

Odatda, o'simliksimon naqshlar qo'llanilishiga ko'ra yakka (bir) yoki qo'sh (ikki) bandli ko'rinishda tasvirlanadi. Ularga misol qilib: ruta, hoshiya, raftor, namoyon, mehrob, turunj, munabbat va hokazo naqsh namunalarini olish mumkin.

Naqsh elementlarning o'zaro bir biri bilan bog'lanib — birikib borishi mutanosiblikni tashkil etadi va naqsh kompozitsiyasining butun bir yaxlitligini ta'minlaydi. Naqqoshlik san'atiga ixlos qo'ygan har bir yosh, avvalo naqsh chizishni o'rganish davomida naqsh tuzishda foydalaniladigan elementlarni chizish orqali mashq qilishdan boshlashi kerak. Odatda o'simliksimon naqsh elementlarini chizish, ularni guruhlarga bo'lib olingan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Masalan, dastavval barg, gul, band, marg'ula, sirtmoq va boshqa elementlarni osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon chizib mashq qilish lozim. Chizishdan oldin qog'ozni yuzasiga qora qalam bilan engil yurg'izib sxematik kataklar ichiga naqsh elementlarini chizishdan boshlanadi.

Daftarning har bir betiga xuddi boshlang'ich sinflarda harflarni mashq qilgan kabi bitta elementni to yaxshi chizmaguncha qayta-qayta chizib o'rganadilar. Mashqlar davomida simmetriya va asimmetriya qoidalariga alohida e'tibor qaratiladi va qunt bilan ishlash o'rganiladi. Grafiting qattiq va yumshoqligiga qarab qora qalamlar uch turga bo'linadi: qattiq qalamlar (T, 2T, 3T yoki H, 2H, 3H), yumshoq qalamlar (M, 2M, 3M, 4M yoki B, 2B, 3B) va o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlar (TM, HB, F).

Naqsh elementlarini chizishni o'zlashtirilib, rovon chiza boshlagandan so'ng, yo'l ichidagi oddiy naqsh namunalarini chizishga o'tiladi. Dastlab yo'l ichidagi naqshlarni chizish uchun albom yuzasiga kompozitsiyani umumiy o'lchami olinib, katakli taqsimlar chizilib, yordamchi chiziqlar o'tkaziladi.

---

<sup>3</sup>Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. -T.: Iqtisod-Moliya, 2007, -9 b.

Yo'l ichidagi naqshlar odatda davom etuvchi hoshiya naqshi hisoblanadi. Bu naqshni chizish uchun avval tanlangan o'lchamdagi yo'l, to'g'ri to'rtburchak chizib olinadi, naqshni davom etishi rejalashtirilib, taqsimlarga ajratilib naqsh chiziladi. Shuni ta'kidlash lozimki, sinchikovlik bilan o'rganib tahlil qiladigan bo'lsak, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarni umumlashtirib olinganligiga guvoh bo'lamiz.

Kvadrat ichiga naqsh chizish uchun esa, teng tomonli to'rtburchak o'lcham chizib olinadi va naqshni joylashishiga qarab bo'laklarga bo'linadi, kvadrat ichidagi naqshlar tugallangan bo'ladi, chunki naqsh ana shunday o'lchamdagi yuzalarga moslab eskiz qilinadi.

Uchburchak naqshi ham boshqa naqshlar singari yuzaga mo'ljallab tuziladi, agar yo'l naqshiga ulanishi lozim bo'lsa burchakdagi naqsh unga o'xshash elementlar va shakllardan iborat bo'lishi kerak, aks holda mos kelmaydi.

Doira ichidagi naqsh ko'p hollarda yuzalarning o'rtasiga moslab chiziladi. Aylana kerakli o'lchamdagi diametrda chizib olinadi va uning yuzasiga naqsh kompozitsiya qilish uchun yuqoridagi kabi taqsimlar bo'ylab naqsh chiziladi.

Naqqoshlikda kompozitsiya tuzish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'zining bir necha qonun-qoidalariga binoan tuziladi — davriy takrorlanish (ritm), mutanosiblik (proporsiya), simmetriya va markaz topish, stilizatsiya (qayta ishlash), eng chiroyli uzviylik (garmoniya), rang uyg'unligi va o'zaro yorqinlik (kontras).

**Kompanovka**, ya'ni joylashtirish — naqsh kompozitsiyasini yuza sirtiga to'g'ri joylashtirish.

**Ritm** — naqsh elementlarini ma'lum masofada bir tekisda davriy takrorlanib kelishi.

**Stilizatsiya** (qayta ishlash ) — tabiatdagi o'simlik, hayvonot dunyosi va turli jismlarni eng sodda holatida tasvirlash, badiiy usulda umumlashtirish.

**Simmetriya** — grekcha so'zdan olingan bo'lib, o'lchovlarning bir-biriga munosibligi.

**Asimmetriya** — kompozitsiyada simmetriya muvozanatining buzilishi.

Naqqoshlikda kompozitsiyaning o'z o'rni va ularni tuzish bosqichlari mavjud. Naqshning mazmuni, ma'no va mohiyatlarini bir so'z bilan aytganda go'zalligi kompozitsiyaning qanday va qay yo'sinda chizilganligiga bog'liq. Har bir tuzilgan kompozitsiya mazmuni, ramziy ma'nolari ma'lum bir shakllarga egaligi va ranglar jilosi bilan ajralib turadi. Naqsh kompozitsiyasini tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak?

a) naqsh elementlarini o'zaro nisbatini saqlash;

b) tanlangan shaklga mos naqsh kompozitsiyasini tuzish;

d) tanob shaklini asosiy o'rinda bo'rttirib tasvirlash;

e) kompozitsiyadagi gul, novda, barg, bofta kabi elementlarni novda harakatiga mos ravishda tasvirlash.

Turmushda foydalaniladigan har bir buyum o'ziga xos geometrik shakllardan tarkib topgan shunga ko'ra naqsh kompozitsiyalari ham ma'lum bir shakl ichida tuziladi. Shuning uchun ham biz dastlab geometrik shakllar yuzasiga soddaroq ko'rinishga ega bo'lgan naqsh kompozitsiyalar chizishni mashq qilishdan boshlaymiz. Ular yo'l ichida, kvadrat, uchburchak, doira va ko'pburchaklar ichida naqsh kompozitsiya tuzish kabi mavzularda bajariladi. Buning uchun chizg'ich, sirkul va boshqa jihozlarni yaxshi ishlata olish malakasiga ega bo'lish lozim. Chunki naqshlarning aksariyati yordamchi chiziqlar asosida tuziladi.

Har bir shakl ichida chizilayotgan naqshlarning simmetrik holati saqlanishi qo'llaniladigan elementlarning shaklga mosligi, ularni bir me'yorda o'sib borishi va o'zaro bog'lanishi hisobga olinishi muhimdir. Naqshlarning asosiy chegarasi uni bog'lab turuvchi shakl chiziqlarining turli fugurali bo'lishi kompozitsiyalarning rang-barangligini oshiradi va ularni yuzalarga moslash uchun qulaylik tug'diradi. Yuzalarga qarab naqsh tanlanadi va kompozitsiya eskizi bajariladi. Dastlab eskizlarga rang gammalari tanlanib bo'yoqlar sinab ko'riladi.

Darhaqiqat, xalq hunarmandchiligi, amaliy bezak san'ati o'zining qadimiy va jozibadorligi bilan kishilarni qalbidan chuqur joy olib kelgan. Ayniqsa, naqqoshlik san'ati an'analarga boy. Xalq ustalarining ish uslublari ham rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turali. Naqqosh o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalilikka erishadi.

Insoniyat o'zi uchun zarur hisoblangan barcha kiyim-kechak, ro'zg'or va uy anjomlarini doimo takomillashtirib bezab keladi. Shuning bilan birga, har qanday badiiy bezatilgan buyum va jihozlarning o'z bezatilish usullari va materiallarga badiiy ishlov berish bosqichlari mavjud. Bunday bezak va ishlov berilib yasalgan buyumlar kishilarga estetik zavq bag'ishlab, hayotga bo'lgan muhabbatlarini yanada oshiradi. Mohir ustalar tomonidan sayqal topayotgan naqqoshlik, zargarlik, pichoqchilik, kashtachilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik buyumlari nafaqat bugungi kun, balki, kelajak avlodlarimizning ham tarixiy boyliklari, ma'naviy qadriyatlarini bo'lib hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. R.R. Jabbarov. Patterns in applied art of the uzbek folk // European Journal of Arts, 2023, №1. – С.11–14. DOI: <https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-11-14>
2. Muratov, H. (2021). THE IMPORTANCE OF ORGANIZATION AND MANAGEMENT INDEPENDENT EDUCATION IN THE LEARNING PROCESS. Збірник наукових праць ЛОГОΣ.
3. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
4. Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2024). TALABALARNI "AMALIY BEZAK SAN'ATI" FANINI DASTURIY MAHSULOTLAR ORQALI O'QITISHNING DIDAKTIK VA METODIK TA'MINOTI: IQRO INDEXING, 9(1), 195-201. <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/1744>
5. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. Збірник наукових праць ЛОГОΣ.
6. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 142–156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>
7. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>
8. Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(2), 364-367. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192>
9. Talipov N.N. Naqsh elementlarini loyihalash. T.: NIF MSH, 2024, 251 b.